

YO‘LLARDA INFRATUZILMANING YAXSHILANISHI HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA TIRBANDLIKNI KAMAYTIRISH OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-iyul kuni yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Hududlarda bu borada muayyan ishlar qilinmoqda. So‘nggi yillarda yo‘l qurilishi va ta’irlashga 61 trillion so‘m ajratilgan. Bu — 2017-yilgacha berilgan mablag‘lardan 3,5 barobar ko‘p.

Onlayn murojaat tizimi ishga tushib, yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalariga keluvchilar soni 50 foizga kamaydi. Sohadagi 3 ming 365 nafar xodim elektron planshet va bodikamera bilan ta’minlandi. Qoidabuzarliklarni sun’iy intellekt asosida saralash va qaror chiqarish amaliyoti joriy qilindi. Shaharlarda jamoat transporti uchun maxsus yo‘laklar ajratildi.

O‘tgan oyda ham haydovchilarga qator yengilliklar joriy etildi. Jumladan, birinchi marta huquqbuzarlik qilganlarni jazolash emas, ogohlantirish yo‘lga qo‘yildi. Yo‘l chiziqlarini bosish holatlarini kamera orqali fiksatsiya qilish bekor qilindi. Jamoat transporti uchun mo‘ljallangan qatorlarda kechqurun boshqa haydovchilar ham yurishga ruxsat berildi. Shaharlarda yo‘llarni kunduzi ta’irlash taqiqlandi. Radar bor joyda yo‘l belgisini o‘rnatish majburiy bo‘ldi.

Lekin sohada hali dolzarb masalalar ko‘p. Birinchi navbatda yo‘l-transport hodisalar. O‘tgan yili 9 ming 364 ta shunday hodisa sodir bo‘lgan. Ularda qariyb 9 ming fuqaro jarohat olgan. Eng achinarlisi, 2 ming 203 nafar odam halok bo‘lgan.

— Har to‘rtinchi avariya bir kishi yoki kuniga o‘rtacha olti kishi vafot etayotgani barchani qattiq tashvishga solishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Harakat xavfsizligi, eng avvalo, yo‘llarning holati va qulayligiga bog‘liq. Ko‘plab tumanlarda yo‘l infratuzilmasi yaxshilanib, avtohalokatlar ehtimoli kamaytirilgan. Lekin 20 ta hududda yo‘l-transport hodisalar soni yuqorilgicha qolmoqda. Umuman, yurtimizda bunday hodisalar oqibatidagi zarar yalpi ichki mahsulotga nisbatan o‘rtacha 0,4 foizni tashkil qilayпти.

Shu bois, yig‘ilishda “Xavfsiz yo‘l” milliy dasturi boshlanishi ma‘lum qilindi.

Buning uchun “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” respublika jamg‘armasi faoliyati qayta tashkil qilinib, hukumat bo‘ysunuviga o‘tkaziladi. Bu yil unga barcha manbalar hisobidan 400 milliard so‘m tushishi hisob-kitob qilingan. Shuningdek, har bir viloyatda jamg‘armaning alohida hisob raqami bo‘ladi. Ichki ishlar tizimidagi yo‘l belgilari va svetfor o‘rnatish, yo‘l chiziqlari chizishga mas‘ul korxonalar ham viloyat tasarrufiga o‘tkaziladi.

Jamg‘armaning faoliyati shaffof bo‘ladi, uning tarkibiga viloyat YHXB va yo‘l boshqarmasi boshliqlari, jamoatchilik vakillari kiradi. Jamg‘arma mablag‘lari, birinchi navbatda, avariya o‘choqlari bo‘lgan xavfli joylarni tartibga solishga yo‘naltiriladi. Bu ishlar hozirda xavfli bo‘lib qolayotgan 175 kilometr uzunlikdagi 23 ta magistral yo‘l uchastkasidan boshlanadi.

Barcha tumanlarda yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha alohida jamg‘armalar ham tashkil qilingan. Endi yo‘llarning holati bo‘yicha aholi fikrini o‘rganadigan elektron portal ishga tushiriladi. Odamlar u orqali qayerga belgi, piyoda yo‘lagi va svetfor kerakligi haqida ovoz berishi mumkin bo‘ladi. Yakunda portalga takliflar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning video va fotolari ham qo‘yiladi, buni aholi baholaydi. Yangi imkoniyatlardan foydalanib, yo‘llarda harakatni yaxshilab, og‘ir halokatlarni keskin kamaytirish vazifasi belgilandi.

Yana bir muammo — hozirda avtomobil yo‘llarida 1 ming 200 dan ortiq burilish olish joyi bo‘lsa, shundan faqatgina 146 tasida yer osti va yer ustidan burilish mumkin. 10 mingdan ziyod piyoda o‘tish joylarining atigi 154 tasida shunday qulaylik bor.

Shu bois, Transport vazirligiga Jahon banki ishtirokida Toshkent — Samarqand — Termiz, Toshkent — vodiylar hamda Samarqand — Buxoro yo‘nalishidagi xalqaro yo‘llarning xavfsizlik talablariga mosligini diagnostika qilish topshirildi. Ushbu tahlillar asosida yo‘llarda burilish olish hamda piyodalar o‘tishini xavfsiz

qilish, belgilar va chiziqlarni qulaylashtirish loyihalari ishlab chiqiladi.

Yurtimizda shaharlararo jamoat transporti tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Avtobuslar jadval vaqti bo‘yicha emas, balki 40-50 ta yo‘lovchi to‘lganda yurishga o‘rgangan. Shu bois, yig‘ilishda o‘rta va uzoq masofaga qatnaydigan jamoat transportini rivojlantirish choralari belgilandi. Bunda Toshkent shahri va viloyatlararo qatnov bo‘yicha alohida yondashuv qo‘llanadi.

Birinchi, poytaxt jamoat transporti yagona aglomeratsiya tizimiga o‘tib, Toshkent viloyatining barcha tutash hududlarini qamrab oladi. Buning uchun hozirda poytaxt chekkasigacha kelayotgan 20 ta avtobus yo‘nalishi 15-20 kilometrga uzaytiriladi, yana yangi 6 ta marshrut qo‘shiladi. Sentyabrigacha poytaxtga 200 ta, keyingi yili yana mingta avtobus olib kelinadi. Natijada Toshkent shahriga 25 mingta yengil mashina qatnovi kamayishi kutilmoqda.

Ikkinchidan, shaharlar va viloyatlararo jamoat transporti qatnovlari yaxshilanadi. Bu yo‘nalishdagi avtobus va mikroavtobuslar uchun yo‘lovchi boshiga subsidiya beriladi. Avtobuslar uchun utilitatsiya yig‘imidan imtiyoz yana uch yilga uzaytiriladi va bu mikroavtobuslarga ham tatbiq etiladi. Turistik avtobus va mikroavtobuslar uchun bojxona bojidan imtiyoz uch yil davomida jamoat transporti uchun ham qo‘llanadi.

Ma‘lumki, tirbandlikning sabablaridan biri — avtomobil to‘xtash joylarining yetishmasligi. Oqibatda Toshkentda ham, boshqa yirik shaharlarda ham haydovchilar mashinasini yo‘l bo‘yiga qo‘yishga majbur. Ayrim vazirlik va idoralar, hokimliklar binosi joylashgan ko‘chalar yopib qo‘yilgan. Mutasaddilarga bunday holatlarga chek qo‘yib, barcha tashkilot va mahalla ko‘chalaridagi asossiz qo‘yilgan taqiqlovchi belgilarni olib tashlashga ko‘rsatma berildi.

Transport vazirligiga haydovchilar bilan muloqot qilish, ularning muammolarini o‘rganish bo‘yicha elektron platforma yaratish vazifasi qo‘yildi.

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

“YECHIMLAR ATLASI” – POYTAXTNING YAGONA ME’MORIY QIYOFASI

Davlatimiz rahbari Toshkent va Yangi Toshkent shahri uchun “Yechimlar atlası” taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivoji poytaxtimiz qiyofasida yaqqol namoyon. Barcha tumanlar va shahar atrofida bunyodkorlik sur‘ati jadal. So‘nggi yillarda Yangi Toshkent qurilishi ham boshlanib, bir butun megapolisga aylanmoqda.

Hududni muvozanatli rivojlantirish maqsadida Toshkent shahridagi 2045-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan bosh rejasi qabul qilindi. Unda shaharning qurilish rejalarini, muhandislik va yo‘l-transport infratuzilmasi, muhofaza hududlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar belgilangan.

“Yechimlar atlası” ushbu bosh rejaning mantiqiy davomi bo‘lib, unda shaharning tashqi qiyofasi, ko‘chalar muhiti bo‘yicha umumiy talablar qayd etilgan. Bu katalog-ma‘lumotnoma qurilmalarni loyihalashtirish, o‘rnatish va ulardan foydalanish qoidalarini qamrab olgan beshta kitobdan iborat. Har bir qismda jamoat joylarini tashkillashtirish va obodonlashtirish, binolarning tashqi qismini yagona me‘moriy qiyofaga keltirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Masalan, hozirgi standart bo‘yicha yo‘llarni qurish va ta’irlash qatnov qismining “qizil chizig‘i”gacha bajariladi. Rivojlangan shaharlar tajribasida bu ko‘chaning ikki tarafidagi binodan binogacha tamoyilida amalga oshiriladi. Shunda oraliqda qarovsiz joy qolmay, yo‘l bo‘yi yaxlit va mutanosib obodonlashtiriladi.

Atlas shahar muhitini loyihalashda barqaror rivojlanish maqsadlarini hamda milliy koloritni tatbiq etishga xizmat qiladi. Uyg‘un va ekologik toza maskanlarni yaratishga ko‘maklashib, aholining hayot sifatini yaxshilaydi. Ochig‘i jamoat joylarini rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalarda xatlarga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi.

Taqdimotda ushbu talablarning mazmun-mohiyati va undan kelib chiqadigan vazifalar ko‘rib chiqildi. Shaharning o‘ziga xosligini saqlagan holda qiyofasini yanada yaxshilash, yo‘l bo‘ylarini obodonlashtirish, turmush madaniyatini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – OZARBAYJON: AZALIY DO‘STLIK VA STRATEGIK ITTIFOQCHILIKNING YANGI QIRRALARI

O‘zbekiston tashqi siyosatida Ozarbayjon, o‘z navbatida, Ozarbayjon tashqi siyosatida O‘zbekiston bilan munosabatlar katta ahamiyatga ega. Davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Xalqlarimizni o‘xshash milliy an‘analar, til, madaniyat va din birlashtiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari strategik ittifoqchilikning yuqori darajasiga yetdi. Bu munosabatlar tarixiy aloqalar bilan yanada mustahkamlanmoqda. Ikki mamlakat rahbarlarining uzoqni ko‘zlagan siyosati, o‘zaro tashriflar va muntazam aloqalar natijasida munosabatlarning amalda barcha sohalarida o‘sb bormoqda. Shubhasiz, ikki tomonlama aloqalar rivojida davlat rahbarlarining tashriflari alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlarining qator o‘zaro tashriflari amalga oshirildi. Oliy darajadagi uchrashuvlar, imzolangan hujjatlar va yaratilgan institutsional mexanizmlar strategik hamkorlikning asosiy ustunlariga aylandi.

Bu borada Prezidentimizning shu yil 2-4-iyul kunlari Ozarbayjonga davlat tashrif alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Tashrif davomida O‘zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi qarori, shuningdek, turli sohalarini qamrab olgan muhim hujjatlarni imzoladi. Ham ikki tomonlama uchrashuv doirasida,

ham davlatlararo kengash yig‘ilishida hamkorlikning keng doiradagi masalalari muhokama qilindi, aloqalarimizning strategik ittifoqchilik xarakteri yana bir bor tasdiqlandi.

O‘tgan yili Toshkentda o‘zaro ittifoqchilik faoliyati to‘g‘risidagi bitim imzolangani, bu har qanday davlatlar munosabatlaridagi eng yuqori va muhim hujjattir. Davlatlarimiz bir yildan buyon rasman ittifoqchi va bu xalqaro maydonda faol hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ko‘plab sohalaridagi reja va loyihalar bilan namoyish etib kelinmoqda.

Diplomatik maydonda hozirgacha huquqiy bazani mustahkamlovchi 190 dan ortiq ikki tomonlama hujjat imzolangan. Ular orasida 2022-yilda imzolangan strategik sheriklikni chuqurlashtirishga doir hujjat alohida ajralib turadi. Eng muhim voqealardan biri 2024-yilda Ozarbayjon bilan ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi bo‘ldi. Hujjat O‘zbekiston parlamenti tomonidan 30-aprelda ratifikatsiya qilindi.

Davomi 3-betda

JOYLARDA “ISLOHOTLAR SHTABI”

HUDUDIY RIVOJLANISHNING ILG‘OR MEXANIZMI SIFATIDA MAYDONGA CHIQUYPTI

Har qanday davlatning zamonaviy bosqichdagi jadal va muvaffaqiyatli taraqqiyoti yangicha yondashuvlar, ayniqsa, hududiy rivojlanishni samarali boshqarishni taqozo etadi. Zero, aynan hududlar bugun izzchil o‘sishni ta’minlash, tarmoqlarni diversifikatsiya qilish yo‘lida eng muhim xaziraga aylanmoqda.



Ular ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishda hal qiluvchi rol o‘ynab, barqaror iqtisodiy tuzilmani shakllantiradi. Xususan, viloyatlardagi

kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash yangi ish o‘rinlari yaratish, ishsizlik va kambag‘allikni kamaytirish imkonini beradi. Yana bir muhim natija

— infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar rivoji orqali aholi turmush darajasi ko‘tariladi. Bu esa ichki talab ortishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan belgilangan strategik vazifalarni izzchil amalga oshirish uchun doimiy ravishda yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash va ularni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayni shu maqsadda tashkil etilgan “Islohotlar shtabi” hududiy rivojlanishning yangi mexanizmi sifatida maydonga chiqaypti. Ahamiyatlisi, ular joylardagi vaziyat, haqiqiy holatni chuqur tahlil qilaypti, mavjud muammolarni mutasaddilarga tezkor yetkazish bilan birga ularni joyida hal etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqmoqda.

Davomi 2-betda



YARIM YILLIKDA YIM HAJMI

6,7-6,8 FOIZGA O‘SISHI KUTILMOQDA

2



ISTE’MOLGA YARASHA TO‘LOV ISROF QILMASAK – NOLIMAYMIZ, NOLISAK – ISROF QILGAN BO‘LAMIZ

Oxirgi vaqtlarda elektr energiyasi va gaz iste’molida ancha tejamkor bo‘lib qolgandekmiz.

Ulardan ortiqcha foydalanishdan oldin darrov maxsus mobil ilovaga ko‘z tashlab, narxlar tariflari bo‘yicha belgilangan ijtimoiy norma chegarasiga bir qarab olamiz. Bir oyda hech bo‘lmasa 200 kilovattndan oshib ketmasin deymiz. Aks holda, to‘lov ko‘proq bo‘lishi mumkin.



O‘tgan yil may oyida yurtimizda ilk bor elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun joriy etilgan ijtimoiy norma odamlarni tejamkorlikka o‘rgatishi haqida gapirilgandi. Garchi masala jiddiy tus olib, narx-navo ko‘tarilgani va ijtimoiy norma amaliyotga kiritilishi ko‘plab e‘tirozlarni yuzaga keltirgan bo‘lsa-da, bugungi kunga kelib, ushbu yondashuv haqiqatan aholini tejamkorlikka o‘rgatayotgani ko‘zga tashlanadi. Endi elektr energiyasidan har qancha foydalansak ham bir xil to‘lov qilmaymiz, sarf organi sari narx oshib boradi. Oddiyroq aytganda, ko‘proq foydalangan ko‘proq to‘laydi, kamroq foydalangan aksincha.

Jahon tajribasida shunday bo‘lib kelgan — har kim iste’moliga yarasha to‘laydi. Isrof qilgan buning badalini cho‘ntagidan qoplaydi, boshqalarning iste’mol huquqini poymol qilmaydi. Tejjagan esa hamyoniga foyda qiladi. Xullas, buyog‘i bozor iqtisodiyoti.

Davomi 4-betda



TEJAMKORLIK madaniyati

YANGI O'ZBEKISTON

ISTE'MOLGA YARASHA TO'LOV

ISROF QILMASAK – NOLIMAYMIZ,
NOLISAK – ISROF QILGAN BO'LAMIZIroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Tejamkorlikka undovning ayni shakli yurtimizda yillar davomida amal qilgan — elektr energiyasi va gaz iste'molida isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, noqonuniy foydalanmaslik, foydalanilmagan vaqtda elektr uskunalarini o'chirib yurish, iste'mol uchun to'lovlarni o'z vaqtida to'lash kabi jon kuydirib aytilgan da'vatlardan ko'ra ancha samarali ekani amaliyotda yaqqol ko'rinaypti. Endi bunday gaplarni biror kimga ayitishning hojati yo'q, tizim allaqachon raqamlashtirilgan, barchasi avtomatik amalga oshiriladi.

O'zgargan yoki
o'zgarmagan narx?!

Gap tabiiy resurslardan foydalanishdagi tejamkorlik haqida boryapti. Bu bir necha oila yoki hudud miqyosidagi masala emas. Ko'pchilik yaxshi biladi, tabiiy resurslarni tejab, oqilona foydalanish global masalaga aylangan. Ularning xaziralari qisqargani sari jahon bozoridaqi qiymati oshib boryapti. Endi ulardan foydalanishni samaradorligini oshirishda yangicha, zamonaviy yondashuvlar talab etilmogda.

Keyingi yillarda yurtimiz bo'ylab barcha xonadonlarga zamonaviy elektron hisoblagichlar o'rnatilgani boisi shunda. Inson omilisz ishlaydigan bu qurilmalar aholi tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasidan o'g'rinch foydalanish, ortiqcha isrof kabi holatlarga chek qo'ydi. Tizimni to'liq raqamlashtirish esa keyingi qadam — elektr energiyasi va gaz to'lovlari uchun ijtimoiy normani belgilashga yo'l ochdi. Bu ham to'liq inson omilisz ishlaydigan tizim bo'lib, avvalo, tejamkorlik, tabiiy resurslardan bemaqsad foydalanmaslikka xizmat qiladi.

Ijtimoiy norma “iste'molga yarasha to'lov” mezoniga asoslangani uchun odamni behuda isrofgarchilikdan tiyib turadi. Qolaversa, bu ijtimoiy adolati to'linlaydi. Masalan, bir oyda ming kilovatt elektr energiyasi sarflaydigan xonadon 200 kilovattgacha ishlatadigan 5 ta oila iste'moliga teng elektr energiyasidan foydalanar ekan, to'lovni ham shunga yarasha qilishi kerak. Ya'ni uyida barcha sharoitlari bo'lib, elektr uskunalari ko'pligi o'sha oilaning elektr energiyasidan boshqalardan ko'proq foydalanishi, biroq hamma qatori to'lov qilishiga asos bo'lolmaydi. Afsuski, yillar davomida shunday bo'lib kelgan.

O'tgan yili ijtimoiy norma ilk bor amaliyotga kiritilganda elektr energiyasi to'lovlari bir oyga 200 kilovattgacha 450 so'm, 1000 kilovattgacha 900 so'm etib belgilangandi. Odamlar bir yil davomida shu asosda to'lovlarni amalga oshirdi. Bu davrda o'zimiz foydalanadigan me'yor va tejamkorlikni ham ancha o'rganib oldik. Agar elektr uskunalar keraksiz vaqtda ham yoqiq qoldirilmasa, chiroqlar tejamkor turlariga almashtirilsa, faqat qariyalar emas, har birimiz ishlamay turgan qurilmalarni tokdan uzib qo'yishga odatlansak, hech kim bo'lmagan xonada havo soviktich, televizor ishlash turnasa, aslida, ko'pchilgimizning elektr energiyasi iste'molimiz bir oyda 200 kilovattidan oshmasligi oydinlashib qoldi.

Ammo ijtimoiy norma qat'iy belgilangani narxlar endi oshmaydi degani emas. Bozordagi har bir mahsulot kabi tabiiy gaz va elektr energiyasi to'lovlari ham muayyan vaqtda oshirilish zaruratiga ega. Gap joriy yilning 1-may sanasidan boshlab ushbu to'lovlar oshgani haqida boryapti. Shu asosda yangi tariflar belgilandi. Endilikda elektr energiyasi uchun bazaviy me'yor bo'yicha 200 kilovatt soatgacha 600 so'm (bungacha 450 so'm edi), 201 kilovattidan 500 kilovatt-soatgacha 800 so'm, 501-1000 kilovatt-soat uchun 1000 so'm, tabiiy gaz uchun esa oyiga 500 kub metrgacha 1000 so'm (bungacha 650 so'm edi), 501-2500 kub metrgacha 1800 so'm to'lov amal qilmoqda.

Mutaxassislarning aytishicha, tariflar o'zgarishi bilan kechgan narx oshishi tejamkor oilalarga sezilmasligi ham mumkin. Ya'ni ular uchun oradagi farq katta bo'lmaydi. Hatto grafikdagi o'zgarishlar aholi uchun yengillik yaratishga qaratilgan. Yaqinda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bu boradagi kichik hisob-kitobni e'lon qildi. Mutaxassislar elektr

energiyasi narxi o'zgargach, bir abonent uchun bir oylik qo'shimcha xarajat necha so'm bo'lishini hisoblagan. “Agar siz bir oyda 50 kilovatt-soat elektr energiyasi yoqsangiz, demak, xarajatingiz 7500 so'm oshibdi. Bu kunlik 250 so'm qo'shimcha xarajat degani. Me'yoriy baza miqdori doirasida elektr energiyasi yoqadigan abonent esa bir oyda 30 ming so'm, kuniga 1000 so'mdan qo'shimcha sarflaydi. Oyiga 500 kilovatt-soat elektr energiyasi iste'mol qiladigan abonentlar uchun to'lovda hech nima o'zgarmagan. Ular avvalgidek 360 ming to'lashda davom etadi”, deyiladi ma'lumotda.

Yana o'sha tejamkorlikka borib taqalyapti gap. Tabiiy gaz va elektr energiyasi to'lov narxlari oshgani aniq. Ammo bu narxlar tejamkor oilalar uchun nisbatan arzonroqqa tushadi. Qolaversa, ijtimoiy normaning ahamiyati bu yerda yanada yaqqol ko'rinadi: tariflar ham, to'lovlar ham iste'molga yarasha bo'ladi. Bu xuddi mobil operatorlarda foydalanuvchilar talablariga mos joriy etilgan qator tariflar, internet to'plamlari tariflari va boshqa shu kabi “iste'molga yarasha to'lov” mexanizmlarining bir ko'rinishi. Har kim ehtiyoji va cho'ntagiga yarasha tanlaydi va xarajat qiladi.

Kompensatsiya kimlarga
beriladi?

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida odamlarning asosiy xarajatlari kommunal to'lovlarga ketishi haqida ko'p eshitganmiz. Sababi narx-navo ancha qimmat. Aslida, bu bejiz emas. Soha mutaxassislarning aytishicha, tabiiy gaz va elektr energiyasini iste'molchilarga yetkazib berish xarajatlari nihoyatda qimmatga aylanadi. Ayrim davlatlarda to'lov tariflari shunga yarasha belgilanishi boisi shunda.

Yurtimizda esa elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun belgilangan to'lovlar hali ham ancha arzonligi aytiladi. O'tgan yili narxlar oshirilgunga qadar ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismini davlat subsidiya asosida qoplagan. Hozirgi kunda 1 kilovatt elektr energiyaning tannarxi, ya'ni ishlab



Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra, hozir 10 ta viloyatda umumiy quvvati 4067 megavatt bo'lgan 11 ta quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 3 ta shamol stansiyasi bor. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi esa joriy yil boshidan buyon 4 milliard kilovatt-soatdan oshgan. Qizig'i, bir oy oldin bu ko'rsatkich 3 milliard kilovatt-soatga yetgani qayd etilgandi. Bu o'tgan vaqt mobaynida quyosh va shamol elektr stansiyalaridan kuniga o'rtacha 34,5 milliard kilovatt-soat elektr energiya olindi degani.

chiqarish xarajatlari qo'shilgan qiymat solig'i bilan 1,002 so'mni tashkil qiladi. O'rnatilgan me'yor bo'yicha to'lov narxlari ham elektr energiyasi ishlab chiqarish, uni yetkazish, taqsimlash uchun qilinadigan xarajatlarni to'liq qoplamaydi. Shunga qaramay, aholining birlamchi ehtiyojlari va zarur bo'lgan miqdorni inobatga olgan holda 200 kilovattgacha elektr energiya uchun imtiyozli, subsidiyalangan narxlar taqdim etilgan.

— Buni oyiga 500 kilovatt-soatgacha elektr energiyasi ishlatadigan aholi misolida tahlil qilib ko'ramiz, — deydi Energetika vazirligi axborot xizmati rahbari Hasan Toshxo'jayev. — Shuncha miqdordagi me'yor uchun oyiga 360 ming so'm to'lanadi, ammo ishlab chiqarish xarajati 500 ming so'mdan oshadi. Demak, davlat hali ham aholiga 140 ming so'm subsidiya beryapti. Yillar davomida yurtimizda elektr energiyasi narxlari arzon bo'lgani haqida gapiramiz,



ammo shunga yarasha tizimda ham islohotlar bo'lmagan. 2023-yilgacha deyarli katta ishlar qilinmagan, mablag' yetishmagan. Aynan 2023-yildagi anomal qish energetika sohasidagi asl vaziyatimizni ko'rsatib qo'ydi. Tub islohotlar samarasini odamlarning o'zi ham qisqa vaqtda ko'ra boshladi.

Ijtimoiy normaning o'zi avval boshdan aholi tomonidan sotib olishda qo'llaniladigan imtiyozli tarif ekani aytilgandi. Ya'ni energiya muayyan me'yorgacha nisbatan past (imtiyozli) narxda va bu me'yordan yuqori iste'mol uchun bozor narxlarida sotiladi. Hozirgi tariflar bo'yicha 200 kilovattlik me'yor imtiyozli hisoblanadi va bu aholining barcha qatlamiga amal qiladi.

Bunga qo'shimcha tarzda yurtimizda to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan va ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlami uchun alohida kompensatsiya belgilandi. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan shu yilning 1-may sanasidan boshlab ehtiyojmand aholiga

taqsimlanganda 669 ming so'mdan kam chiqqan oilalar ushbu tizimga kiritilgan. Kompensatsiya to'lab beriladigan keyingi talabgorlar esa kambag'al oilalar reyestri ro'yxatidagilardir. Shuningdek, ikkala reyestrga ham kirmagan, ammo mol-mulki kam va oylik daromadli har bir oila a'zosiga 1 million so'mdan oshmaydigan oilalarga gaz va elektr to'lovi uchun kompensatsiya to'lanadi.

Ushbu amaliyot shu yilning 1-may sanasidan kuchga kirdi. Kompensatsiya olish uchun arizalar 1-iyundan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahallalardagi ijtimoiy xodimlar orqali qabul qilinmoqda. Bugungi kungacha 915 mingdan ziyod oila kompensatsiya olish uchun ariza topshirgan. Ularning 808 mingdan ortig'i ijtimoiy himoya reyestriga kiritilgan, kambag'al deb topilgan oilalar bo'lsa, 106 mingdan ziyod hali ro'yxatga kirmagan, ammo yordamga muhtoj oilalardir. Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-2025-yilgi isitish mavsumi uchun umumiy kam ta'minlangan oilalarga 313,6 milliard so'm yordam berilgan bo'lsa, joriy yilda umumiy hisobda 1 trillion 330 milliard so'm miqdorda kompensatsiya ajratilishi rejalashtirilgan.

Elektr energiyasi uzluksizligi
o'z qo'limizda!

Ayni paytda yurtimizda chilla mavsumi avj pallada. Bunday vaqtda sovitsish texnikasidan foydalanish ko'lami organi hisobiga uyimizdagi elektr hisoblagich odatdagidan tezroq aylanadi! Istaymizmi-yo'qmi, ayrim mavsumlarda elektr energiyasiga talabimiz keskin oshadi. Shunday vaqtda tejamkorlik haqida o'ylash u yoqda tursin, elektr tokida ozgina uzilish bo'lib, chiroq o'chib qolsa, xunobimiz chiqadi.

Ammo shunday sharoitda ham tejamkorlikning iloji bor. Muammoning yechimi — muqobil energiya manbalarida. Avvallari bu borada faqat dunyo tajribasini gapirardik. Bugun esa O'zbekiston “yashil” energetikaga faol o'tib bormoqda. Sanoat korxonalaridan tortib, aholi xonadonlarigacha quyosh panellari o'rnatilyapti.



Buning uchun imtiyoz, subsidiyalar ajratilyapti. Maqsad tabiiy resurslarni tejash, muqobil energiya manbalari hisobidan mavjud ehtiyojni qoplash, qolaversa, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Elektr tokini gaz yoki boshqa yoqilg'i manbalaridan olishdan ko'ra quyosh yoki shamoldan foydalanish ancha barqaror va zararsiz. Boisi, ular qayta tiklanish xususiyatiga ega. Jahon miqyosida energetika xaziralari tobora kamayib borayotgan vaqtda bu eng zarur va ishonchli yechimga aylangan. Qolaversa, sayyoramizdagi demografik o'sish bevosita elektr energiyasiga talabni oshirmoqda. Masalan, “Ember” nashri ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilda global elektr energiyasi iste'moli 4 foiz o'sib, ilk bor 30 milliard kilovatt-soatdan oshgan. Eng yuqori iste'mol Xitoy va AQSH hissasiga to'g'ri kelyapti. Iste'mol talabi oshishiga esa elektromobillar, data-markazlar va issiqlik nasoslari kabilar tobora kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur tarmoqlar global elektr energiyasi iste'moli o'sishining 17 foizini ta'minlagan. Yurtimizda ham bunday talab o'sishda davom etyapti. 2030-yilga borib mamlakatimiz iste'molchilarining elektr energiyasiga yillik talabi joriy 74 milliard kilovatt-soatdan 110 milliard kilovatt-soatgacha oshishi hisob-kitob qilgan.

Endi muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko'rsatkichini oshirish hisobiga bu talab qondirib boriladi. Jumladan, O'zbekiston o'z oldiga 2030-yilga borib “yashil” energiya hajmini 54 foizga yetkazishni maqsad qilgan. Bu harakatlar oshirilgan tariflarni muayyan ma'noda yumshatish barobarida tejamkorlik, energetika resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra, hozir 10 ta viloyatda umumiy quvvati 4067 megavatt bo'lgan 11 ta quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 3 ta shamol stansiyasi bor. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi esa joriy yil boshidan buyon 4 milliard kilovatt-soatdan oshgan. Qizig'i, bir oy oldin bu ko'rsatkich 3 milliard kilovatt-soatga yetgani qayd etilgandi. Bu o'tgan vaqt mobaynida quyosh va shamol elektr stansiyalaridan kuniga o'rtacha 34,5 milliard kilovatt-soat elektr energiya olindi degani.

teng kichik quvvatli quyosh panellari o'rnatilgan. Shundan eng ko'pi — 173 ming 798 tasi aholi, 26 ming 831 tasi esa tadbirkorlik subyekti tomonidan o'rnatilgani qayd etilmogda. Ushbu jami panellar orqali joriy yilning besh oyida 489 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lib, natijada 148 million kub metr tabiiy gaz tejalgan, 220 ming tonna zararli gaz atmosferaga chiqishining oldi olingan.

Xonadoniga quyosh panellari o'rnatgan yurtdoshlarimizning ko'pi bilan suhbatlashganida, deyarli hammasi zamonaviy texnologiyaning afzalliklari haqida gapiradi. Ulardan olinadigan ortiqcha energiyani davlatga sotib, daromad qilayotganlar oramizda ko'paygan. Hech bo'lmasa, o'z ehtiyojiga foydalanganda ham odamlar quyosh panellari orqali elektr energiyasiga sarflaydigan xarajatini yaxshigina tejamoqda. Bu tejamkorligi bilan milliy iqtisodiyot va tabiatga ham foyda keltiryapti.

Ya'ni bugun elektr energiyasi iste'moli bevosita ekologik barqarorlikning bir qismiga aylangan. Kuni kecha e'lon qilingan yillik statistik sharhga ko'ra, dunyo energiya tarmog'ida karbonat angidrid tashlanmalari bo'yicha yangi rekord o'rnatilib, ketma-ket to'rinchi yil yuqori ko'rsatkichga ko'tarildi. Bu sayyoramizda elektr energiyasi iste'moli ortib borayotgani bilan bog'liq. Aniqliqro'q, global energiya ta'minoti 2006-yildan beri birinchi marta 2 foiz o'sgan. Barcha manbalar, xususan, neft, gaz, ko'mir, atom, gidroenergetika va qayta tiklanadigan energiya manbalari ko'paydi. Bu CO₂ emissiyasini taxminan 1 foiz oshishiga olib keldi. To'g'ri, bu vaqtda shamol va quyosh energiyasi ham 16 foiz o'sgan, bu energiyaga talabning umumiy o'sishidan to'qqiz barobar tezroq. Shunga qaramay, Dubaydagi COP28 iqlim sammitida kelishib olinganidek, dunyo 2030-yilga borib qayta tiklanadigan quvvatlarni uch baravar oshirish maqsadiga erisha olmayotgani ta'kidlanaypti.

Agar mamlakatlar iqtisodiyotida eng ko'p elektr energiyasi iste'moli va ulardan chiqadigan zararli gazlar anyan sanoat korxonalari hissasiga to'g'ri kelishini hisobga olsak, ushbu tarmoqlarda muqobil energiyadan foydalanish, ayniqsa, dolzarbligi ko'rinadi. Qolaversa, bu tarmoqlarning ishlashi uchun barqaror quvvat manbalari zarur. Shu yilning 23-iyun kuni davlatimiz rahbari yirik sanoat korxonalari “yashil” energiya bilan ta'minlash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishar ekan, energiya isrofini kamaytirish, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarida tejamkor uskunalar o'rnatish vazifasi qo'yildi.

Ya'ni energiyani nafaqat ishlab chiqarish, balki tejash ham juda muhim. Xo'sh, sanoat tarmoqlarida bu qanday amalga oshiriladi? Masalan, ma'lumotlarga ko'ra, suv xo'jaligidagi nasoslarga yiliga 6,5 milliard kilovatt-soat elektr sarflanaypti. Shu bois, 12 ta yirik nasosni modernizatsiya qilib, har biriga 75-100 megavattli quyosh stansiyasi hamda 50 megavattli saqlash qurilmasi o'rnatish vazifasi belgilandi. Natijada nasoslarning elektr sarfi yiliga 2 milliard kilovatt-soat kamayib, 4,5 milliard kilovattgacha tushadi. Neft-gaz korxonalari ham 240 megavattli quyosh stansiyasi va 300 megavattli saqlash qurilmalari o'rnatib, kamida 600 million kilovatt-soat elektr olish imkoniyati bor.

Yurtimiz bo'ylab sanoat korxonalariida quyosh panellari o'rnatishga kirishib ketilgani boisi shunda. Buning uchun yirik investitsiyalarni jalb etilyapti. Birgina Namangan viloyati Davlatobod tumanida 2023-yildan beri quyosh panellari o'rnatish hajmi 1-2 barobar oshgan. Tumandagi qog'oz va to'qimachilik korxonalari uchun aksessuarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan zavodlardan birida o'tgan yili quyosh panellari o'rnatilgach, elektr energiyasidan foydalanish imkoniyati yanada oshdi. Uzluksiz ishlab chiqarilayotgan elektr toki umumiy tarmoqqa to'lanadigan xarajatlarni keskin kamaytirdi. Asosiysi, tadbirkor Shavkatjon Siddiqov istalgan vaqtda chiroq o'chib qolib, zavodida ish to'xtab qolishi muammosidan xalos bo'ldi.

Zavod toimga o'rnatilgan quyosh panellari soatiga o'rtacha 846 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Korxona ehtiyojidan ortgan qismi davlatga sotilyapti. Hozirgi kunga qadar sotilgan 45 ming kilovatt-soat elektr energiyadan olingan daromad korxonaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yo'naltirildi.

Umuman, bugun elektr energiyasi tejamkorligi borasidagi harakatlar oddiy targ'ibotdan ancha yuqori. Yangicha yondashuv va zamonaviy texnologiyalar endi bevosita amaliyotda qo'llanilyapti. Hozir uydagi biror qurilmani shunchaki o'chirib qo'yishdan ko'ra xonadonda energiyatejamkor uskunalaridan foydalanish aniq samaradorlikni ko'rsatadi. Bunga o'zimiz ham moslashib boryapmiz. Endi qanday qilib elektr energiyasi va unga ketadigan xarajatlarni qisqartirishni yaxshi bilamiz. Shunga qarab harakat ham qilyapmiz.



Bugungi murakkab va notinch dunyo ham ijobiy, ham salbiy sifatleri bilan tobora globallasib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalari kun sayin, oy sayin rivojlanyapti. Xususiy nashrlar, teleradiokanallar, internet resurslari ko‘payib, ulardan foydalanuvchilar safi tobora kengayib bormoqda. Shu bois, dunyo miqyosida turli vositalar orqali tarqalayotgan axborotlar oqimini to‘siq qo‘yish yoki jilovlashning imkoni qolmayapti.

Xolboy IBRAGIMOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, akademik

Bolalar mediamahsulotlarni eng ko‘p qabul qiladigan segment sanaladi. Modomiki shunday ekan, har bir o‘g‘il-qizimiz media bozorining

qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha professional tashkilot yo‘q“, deb alohida ta’kidladi. Joriy yil 15-mayda davlatimiz rahbarining “Bolalar uchun



MEDIAMADANIYAT

AVVALO O‘ZIMIZDA, KEYIN BOLALARIMIZDA BO‘LISHI KERAK



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Institutimiz olimlari 1-11-sinf o‘quvchilari uchun “Mening ma’naviy hamrohim” ruknida har bir sinf o‘quvchilarining real hayotiy tajribalariga moslab, zamonaviy mazmunda 11 ta qo‘llanma tayyorladi. Bu qo‘llanmalar ham, o‘z navbatida, bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontent sifatida xizmat qiladi.



Qolaversa, bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlarni yaratishga xorijiy mutaxassislarni jalb qiladi, xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda qo‘shma loyihalar tayyorlab, ularni amalga oshiradi. Bolalarga milliy madaniyat, san‘at, adabiyot, tarix va ma’naviy qadriyatlar haqida tushunchalar beradigan, ularda ekologik madaniyatni shakllantiradigan, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladigan milliy kontentlar yaratishga oid loyihalarni joriy etadi. Shuningdek, bolalarning o‘zbek tilida ravon so‘zlash va imloviy xatolarsiz yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga mo‘ljallangan interaktiv dasturlar ishlab chiqadi, mahalliy ijodkorlarga milliy kontent yaratish

bo‘yicha buyurtma beradi, sohada kadrlar tayyorlashni tashkil qiladi.

Qarorga muvofiq, 2030-yilgacha bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar, jumladan, nashr mahsulotlari foyda solig‘idan ozod qilindi, ijtimoiy soliq esa 1 foiz miqdorida belgilandi, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish tartibi ham joriy etildi.

Mamlakat miqyosida bunday keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani, albatta, bejiz emas. Chunki barchamiz real hayotda bolalarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga harakat qilaymiz. Lekin negadir virtual hayotda bunday bo‘lmayapti. Bu esa ayrimlarda internetfobiyaning paydo

qilmoqda. Ular “Bolalarimizni internetdan himoya qilishimiz kerak. Internet bolalarimizni buzayapti”, deydi. Aslida esa “Biz o‘zimiz internetdan qanday foydalanishni o‘rganmadik. Bolalarimizga o‘rgatmadik. Ularni qanday nazorat qilishni bilmayapmiz. Shuning uchun biz berayotgan puldan bolalarimizga foyda o‘miga zarar yetayapti”, deyilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki internetdagi yaxshi resurslarni qo‘yib, yomonlaridan foydalanishning oqibati shu...

Internet — umuminsoniy trendda va shunday bo‘lib qoladi. Internet — bozor. Uni tanqid qilish befoyyda. Undan ko‘ra bolamizga bu bozordan nimani, qanday olishni o‘rgataylik. Avval o‘zimizni, keyin bolalarimizni mediamadaniyat bilan qurollantiraylik. Ana shunda internet bizni emas, biz internetni yutamiz: kam pul sarflab, internetdan katta foyda olib yashaymiz.

Britaniyalik mediapedagog D.Bukingem “Axborotlashgan jamiyatda yoshlar mediamahsulotlarni passiv qabul qiladi va uning qurboniga aylanadi. Shu bois, mediapedagogika bolaning o‘zini markazga qo‘yadi. Boladagi mediabilim va tajribaga tayanadi”, deydi. Modomiki shunday ekan, yoshlarga mediamahsulotlarni tanlash va ularidan foydalanishni o‘rgatish bugungi kunning asosiy shartlaridan biriga aylandi. Muammo shundaki, ayrim hollarda ota-onalar, hatto ba’zi o‘qituvchilar ham o‘z bolalariga mediamadaniyatni o‘rgata olmayapti. Ustiga ustak, axborot texnologiyalari shu qadar tez rivojlanayaptiki, unga hatto yoshlarning o‘zi ham yetib ololmayapti.

Prezidentimiz qaroriga binoan, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutiga Bolalar kontentini rivojlantirish markaziga ilmiy jihatdan ko‘maklashish vazifasi ham yuklatildi. Bu bejiz emas. Chunki institutning tashkil bo‘lganiga endi bir yil to‘layotgan bo‘lsa-da, shu qisqa vaqt ichida bolalar kontentini to‘ldirish bo‘yicha muayyan ishlar qilindi. Masalan, maktab o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan, ularni hayotiy ko‘nikmalar, chet tillar va kasb-hunarga o‘rgatuvchi “cho‘ntak kitobchalar” (pocket books)ni joriy qilish bo‘yicha innovatsion loyiha amalga oshirildi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarga hayotiy ko‘nikma, chet tillar va kasb-hunar o‘rgatishda innovatsion vosita, shuningdek, ularni kelajakda emas,

bugun hayotiy ko‘nikmalardan foydalanib, muvaffaqiyatga erishishga o‘rgatuvchi (skill book) kitobcha vazifasini o‘tadi.

Ayni paytda mamlakatimizda 6 milliondan ziyod o‘quvchi va 1 milliondan ortiq talaba ta’tilga chiqdi. Ana shunday “cho‘ntak kitobcha”lar yoz oylarida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda ma’naviy vosita vazifasini bajrayapti.

Institutimiz jamoasi ayni paytda bunday innovatsion loyihalarni yanada kengaytirish va rivojlantirish ustida ishlayapti. “Vatanni sevisht”, “Til o‘rganishning oson yo‘llari”, “Kasblar olami”, “Ijodkor bola”, “Nima qilsam do‘stim ko‘p bo‘ladi”, “Mobil telefonning foyda va zarari”, “Zamonaviy qiz bola”, “Men ishonchni oqalayman”, “Mehribonlarim”, “Tadbiirli o‘quvchi”, “Mening irodam”, “Bag‘rikenglik”, “Mehnatsevar bolalar” degan nomlarda yangi “cho‘ntak kitobcha”larni tayyorlash va ana shu asosda Bolalar kontentini rivojlantirish markazi bilan birgalikda bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni rejalashtirganimiz.

Institutimiz olimlari 1-11-sinf o‘quvchilari uchun “Mening ma’naviy hamrohim” ruknida har bir sinf o‘quvchilarining real hayotiy tajribalariga moslab, zamonaviy mazmunda 11 ta qo‘llanma tayyorladi. Bu qo‘llanmalar ham, o‘z navbatida, bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontent sifatida xizmat qiladi.

Biz hali mahalladagi tarbiyaviy imkoniyatlardan to‘liq foydalana olganimiz yo‘q. Lekin bu borada ishlar boshlab yuborilgan. Ayni shu maqsadda “Mahalla pedagogikasi” ruknida aholi, ayniqsa, yoshlar orasida vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni o‘rgatish, innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini tarbiyalashda mahallalarning ijtimoiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini targ‘ib qilishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqishga kirishdik. Bu dasturlar, o‘z navbatida, bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratishga asos bo‘ladi.

Mamlakatimiz miqyosidagi bunday keng ko‘lamli chora-tadbirlar zamirida yagona maqsad mujassam: yangi O‘zbekistonni bunyod etadigan, Uchinchi Renessans poydevoriga asos soladigan yoshlarni, kelajagimiz kafolati bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalashdan iborat.

Mulohaza

“DOLZARB 90 KUN”NI ANGLASH

Bugungi globallashtirish dunyoda kuzatilayotgan geosiyosiy urushlar, g‘oyaviy, mafkuraviy, iqtisodiy, axborot xurujlari, kiber xavflar har qachongidan hushyor bo‘lishni talab etadi. Buni anglagan davlatlar esa uzoqni o‘ylagan strategik rejalarni, maqsadli tashabbuslarni harakatga keltirish choralarini ko‘rad. Shu ma’noda, mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, har bir fuqaroning tinch va osuda hayot kechirishini ta’minlashga o‘ta muhim vazifa sifatida yondashilib, bu borada izchil islohotlar amalga oshirilayotgani bejiz emas. Ayniqsa, yoshlarimizga yangi O‘zbekistonning bunyodkorlari sifatida keng sharoit va imkoniyat yaratib berilayotgani diqqatga sazovor.

Azizbek AMONOV,
Buxoro davlat universiteti dotsenti

2019-yil Prezidentimiz tomonidan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ilgari surilgan besh muhim tashabbusning asl mohiyatini dastlab chuqur anglay olmaganimiz bor gap. Keyinchalik respublikamiz miqyosida besh muhim tashabbus yo‘nalishidagi vazifalar maqsadli, tizimli ravishda korxona, tashkilot, ayniqsa, ta’lim muassasalarida keng yo‘lga qo‘yilishi natijasida O‘zbekiston yoshlarini

har jabhada qayta kashf qildik. Navqiron avlod vakillari orasida sog‘lom turmush tarzi ommaviy harakatga aylandi, milliy merosimiz keng jamoatchilik orasida qaytadan jadal ommalashtirildi, yoshlar raqamli texnologiyalarni, chet tillarni chuqur o‘rgana boshladi, sport sohasidagi yutuqlar mislsiz darajada oshdi.

34 yillik orzu ro‘yobi, ya’ni futbol bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasining Jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritishi ham aynan Prezidentimiz ilgari surgan besh muhim tashabbusning 2-yo‘nalishi — sportga bo‘lgan e’tibor tufayli yuzaga chiqdi.

Har bir yoshga vaqtini ulug‘vor maqsadlar,



“

Yangi O‘zbekiston yoshlar mamlakati ekani e’tirof etilmoqda. Davlatimiz rahbarining Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tantanali marosimdagi nutqida “Birinci va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermokda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz”, deya bildirgan yuksak ishonchi yurtning buguni va kelajakdagi taqdiri aynan yoshlar qo‘lida ekanidan dalolat beradi.

huquqbuzarliklar, jinoyat va tartibbuzarliklarning yarmi aynan o‘quvchi, talabalarning yozgi ta’til vaqtiga to‘g‘ri kelar ekan.

Ming afsuski, yoshlarning ta’til davri, ya’ni iyun, iyul, avgust oylaridagi bo‘sh vaqtini maqsadli sarflashga qaratilgan aniq, manzilli ishlar bo‘lmagan uchun o‘tgan yillarda ko‘plab muammolar yuzaga keldi. Achinarli tomoni shundaki, har bir hudud mahallalarida zamonaviy sharoitlarga ega yirik bino va

inshootlar ham bo‘sh turardi. Vaholanki, yoshlar ta’lim-tarbiyasini kechiktirmaslik, bir soniya qarovsiz qoldirmaslik dardkor. “Yoshlarning bo‘sh vaqt — dushmanning ish vaqti” degan ogohlantiruvchi gaplar bejiz aytilmaydi. Bu har bir yoshni turli yot g‘oyalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali tahdid solayotgan bugungi tahlikali zamonda mas’ullikni oshirib, uyg‘oqlikka chaqiradi. Yoshlar tarbiyasini qarovsiz qoldirmaslikka undaydi.



Bunda asosiy vazifa nimadan iborat?

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Dolzarb 90 kun” tashabbusida aholi, ayniqsa, o‘quvchi talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish nazarda tutilgan. Shuning uchun ta’lim muassasalari, ayniqsa, oliy ta’lim tashkilotlarining ochiq va yopiq sport inshootlari, o‘quv, madaniyat binolari yoshlar — maktab, litsey, texnikum o‘quvchilari ma’naviy yuksalishi va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish obyektlari qilib belgilandi. Endi o‘quvchilar yozda oliygothlar bazasidagi klublar, to‘garaklarda o‘z bilimi, iqtidorini yanada rivojlantirish, yuksaltirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, bu tadbirlar oliygothlarga o‘qishga kirish xohish-istagini oshirishga xizmat qiladi. Bugun qaysi oliygoth hududiga borsangiz, maktab, litsey o‘quvchilarini ko‘rasiz. Shuningdek, ilgari kuzatilmagan holat, ya’ni respublikaning boshqa hududida tahsil olayotgan talabani doimiy yashash manziliidagi oliygothlardagi sport majmualarida, auditoriyalarida tashkil etilayotgan ilm-fanga oid to‘garaklarda ham uchratishingiz mumkin. Aslida, ilgari surilgan masalaning asl mohiyati ham yoshlar bo‘sh vaqtini smartfonlar, internet tarmog‘idagi salbiy “tarbiya”ga chalg‘imasdan shaxsiy yuksalishiga, bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiluvchi foydali ishlar bilan band bo‘lishiga qaratilgan.

“Dolzarb 90 kun”da maktab, litsey, texnikum va oliygoth talabalari bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish uchun tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekiston yoshlar mamlakati ekani e’tirof etilmoqda. Davlatimiz rahbarining Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tantanali marosimdagi nutqida “Birinci va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermokda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz”, deya bildirgan yuksak ishonchi yurtning buguni va kelajakdagi taqdiri aynan yoshlar qo‘lida ekanidan dalolat beradi. Bunday ulkan ishonch barchaga birdek mas’uliyat yuklaydi.

6

2025-yil 10-iyul, 140-son

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz.uz_news

yuz.uz

**Turizm**

**YANGI O'ZBEKISTON**



“YER OSTI KO‘ZASI”

yoxud UNESCO RO‘YXATIdagi 5 YODGORLIK

Har bir manzil-makonning o‘z tarixi, moziydan darak beruvchi qimmatli moddiy va ma’naviy jihati bor. Qadim tarixga ega Navoiy zamini ham tarixshunoslar tadqiq etgan va hali sirligicha yotgan qadamjolarga boy.

2023-yil 10-25-sentabr kunlari Ar-Riyod shahrida bo‘lib o‘tgan Jahon merosi qo‘mtasining 45-sessiyasida Buyuk ipak yo‘lining Zarafshon —Qoraqum koridorida joylashgan 31 ta madaniy meros obyekti UNESCOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan edi. Ular orasida Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi Qosim shayx majmuasi, Mirsaid Bahrom maqbarasi, karvonsaroy, sardoba hamda Mavlono Orif Deggaroniy masjidi madaniy meros obyektlari ham bor.

Navoiy viloyatiga qadami yetgan kishi Buyuk ipak yo‘li o‘tgan qadim Karmanada joylashgan ko‘hna me‘moriy yodgorliklardan biri — Qosim shayx majmuasini albatta ziyorat qiladi. Ushbu majmua 500 yillik tarixga ega bo‘lib, tumandagi Xo‘ja Xisrav mahallasi hududida joylashgan.

Inshoot yassaviya tariqatining shu yerlik yetakchisi, shayx Xudoydod valiyning shogirdi, Markaziy Osiyoda nom qozongan diniy-siyosiy arbob Qosim shayx Azizon Karminagi nomi bilan bog‘liq.

1558-yilda Qosim shayx uchun xonaqoh sifatida bunyod etilgan majmua mustaqillik yillarida ta‘mirlanib, asl shakl-shamoyili va go‘zalligiga ega bo‘ldi. Bu yodgorlik xonaqoh, xilxona, masjid, ayvon va boshqa qo‘shimcha xonalardan iborat. Xonaqoh chodrog‘i tarhli va qo‘sh gumbazlidir. Ichki gumbaz osti iroqi muqarnaslar bilan to‘ldirilgan. Tarhining uch tomoni peshtoqli, janubiy peshtoq hashamatligi bilan ajralib turadi va tevaragi o‘tgan asming boshlarida devor bilan o‘ralgan. Qo‘shimcha binolar, ya‘ni ziyoratxona, masjid va ayvon qurilgan.

Xonaqoh qo‘shdevor bo‘lib, maxsus devor oralig‘i birgina sham bilan qizdirishga mo‘ljallangan. Bitta shamdan hosil bo‘lgan issiq havo bino haroratini mo‘tdail saqlab turishga xizmat qilgan.

Ushbu majmuani shayboniy Abdullaxon II o‘ziga pir deb bilgan Qosim shayx Azizonga atab qurdirgan, — deydi tarixchi Amriddin Abutolipov. — Majmua tashqi va ichki gumbazdan iborat. 1910-1911-yillarda Buxoroning so‘nggi hukmdori Amir Olimxon tomonidan ushbu majmuaga monand bir bino barpo etilgan. Ayni vaqtda ushbu tarixiy yodgorlik bilan yaqindan tanishish uchun mahalliy va xorijiy sayyohlar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Xonaqohning sharqiy tomonida Qosim shayx sag‘anasi bor. Sag‘ana marmar va Abdullaxon g‘ishtli deb ataluvchi tosh bilan qoplangan. Ayrim joyiga Qur‘oni karim oyatlari yozilgan marmartosh terilgan. Hozir bu toshlarning ba‘zilari saqlanib qolgan.

UNESCOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy majmualardan yana biri Karmana tumanidagi X-XI asrlarga mansub Mirsaid Bahrom me‘moriy yodgorligidir. Ushbu tarixiy kompleks maqbara va mo‘jaz masjidi o‘z ichiga oladi.

Mirsaid Bahrom maqbarasi — noyob inshoot. U O‘zbekiston hududidagi eng kichik maqbara. Ko‘pchilik ayrim qismlari tufayli uni Buxorodagi somoniylar maqbarasiga o‘xshatadi. Maqbara binosi kvadrat shaklida hamda ixcham gumbazli. Kirish qismida juda chiroyli arka mavjud. Unda kufiy xatida yozuv bitilgan. Butun devor

geometrik qoplamadan iborat. Binoning ichki qismida marmar qabrtosh mavjud. Qabr ustiga esa qimmatbaho gazlama yopilgan. Binoning ichki devori gumbazni ko‘tarib turuvchi sakkiz qirrali arkalaridan iborat. Arkalarda yog‘ochdan o‘yib ishlangan naqshlar saqlanib qolgan.

Maqbara bir necha bor ta‘mirlanib, hozir

shug‘ullangan. O‘rttigan mol-dunyosidan ko‘p xayr-ehson berib, xalq orasida obro‘-e‘tibor qozongan. U fiqh va tarix ilmini puxta egallagan.

— XI asrda Karmana qadimiy Buyuk ipak yo‘lidagi eng gullab-yashnagan, rivojlangan shaharlardan bo‘lgan, — deydi tarixchi Ramazon Egamov. — Mirsaid Bahrom davrida bu hududda



dastlabki ko‘rinishini yo‘qtogan. Ta‘mirlash jarayonida old tomoni pishiq g‘ishtdan qayta terilgan. Inshoot me‘moriy ashyolarining o‘zaro mutanosibligi va naqshlari ixchamligi bilan ajralib turadi.

Tarixiy kitoblarda yozilishicha, Mirsaid Bahrom yirik savdgor bo‘lgan. U Karmanadan o‘tgan Buyuk ipak yo‘li orqali Afg‘oniston, Eron hamda arab davlatlariga borib, savdo-sotiq bilan

karvonsaroy ham qurilgan. Hududning har tomonlama rivojlanishi va xalq farovonligida uning xizmati beqiyos bo‘lgan. Shu bois, uning vafotidan keyin bu yerda hashamatli maqbara qurilgan. Necha asrdan buyon yodgorlik bir necha marta ta‘mirlandi. Hozir bu yerda ziyorat turizmi uchun barcha sharoit mavjud.

UNESCOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy yodgorliklardan yana

biri Karmana tumani Hazora qishlog‘idagi Mavlono Orif Deggaroniy jome masjidadir. Ilmiy xulosalarga ko‘ra, ushbu majmua Markaziy Osiyodagi eng qadimiy masjid bo‘lib, XI asrda bunyod etilgan.

Masjid Deggaron qishlog‘i hududida bo‘lgani uchun shu nom bilan atalgan. “Deggaron” so‘zi “qozon yasovchi” ma‘nosini bildiradi. Bunga sabab qishloqda qozon yasovchi hunarmandlar istiqomat qilgan. 1910-yili Buxoro amiri Abdulhadxon masjidding oldi va bir yoniga ayvon qurdirgan. Bu ayvonlar 1980-yillargacha mavjud bo‘lgan.

Mavlono Orif Deggaroniy 1313-yilda Hazora qishlog‘ining Deggaron dahasida tug‘ilgan. Asl kasbi do‘kondor bo‘lib, bo‘z to‘qish bilan shug‘ullangan. U Said Amir Kulolning eng yaqin shogirdlaridan bo‘lib, alloma, atoqli tarbiyachi, naqshbandiya tariqati rivojiga muhim hissa qo‘shgan zot edi.

Mavlono Orif XIV asrda — taxminan 1313-1380-yillarda yashab o‘tgan. Qabri shu yerda bo‘lgani uchun masjid ham Mavlono Orif Deggaroniy deb atalgan. Ayni vaqtda ushbu masjid va atrofi katta ziyoratgoh hamda ko‘rkam manzila aylantirilgan.

Karmanadagi qadimiy karvon yo‘li bo‘yida Raboti Malik karvonsaroyi joylashgan. XI asrga oid saroy qoldiqlari — omon qolgan peshtoqlarga mahalliy aholi “Buxoro darvozalari” deb nom bergan. Karvonsaroy XI asming 70-yillarida qoraxoniylar sulolasidan bo‘lgan Shamsulmulk Nasr ibn Brohim tomonidan qurilgan. XII asming birinchi choragida qoraxoniylar sulolasining yana bir vakili Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon tomonidan ta‘mirlangan. Arxeologik tadqiqotlar paytida bu noyob binoning murakkab tuzilishi aniqlangan. U mustahkam devorlar bilan o‘ralgan va ikki qismga bo‘lingan.

Ushbu maskan XI-XII asrlarda qoraxoniylar sulolasidan bo‘lgan turkiy hukmdorlarning

cho‘ldagi mustahkam qarorgohi vazifasini o‘tagan. XIII asrdan boshlab XVIII asr boshlariga qadar Raboti Malik savdo karvonlari uchun karvonsaroy vazifasini o‘tagan. Qarorgohda yashash xonasi, oshxona, hammom, masjid va otxonalar mavjud bo‘lgan.

Bugun karvonsaroylarning saqlanib qolgan xarobasi va kirish peshtog‘inigina ko‘rish mumkin. Karvonsaroy birinchi marta XIX asming o‘rtalarida tilga olina boshladi. Uning tashqi ko‘rinishi sayohatchilarning suratlariga asosan, shuningdek, o‘tgan asr arxeologik qazishmalari natijalariga ko‘ra, tabiatshunos A.Lemanning yodgorlik eskizi asosida qayta tiklangan. Bu tarixiy yodgorlik Samarqand va Buxoroni bog‘lovchi yo‘lda, ya‘ni turizm halqasida joylashgani sababli sayyohlarning qadami uzilmaydi.

Raboti Malik karvonsaroyi yaqinida diametri 13 metr keladigan gumbaz ostida suv ta‘minotiga xizmat qilgan sardoba hovuzi joylashgan. Olimlarning ta‘biri bilan aytganda, “yer osti ko‘za”sining aylana devori yerdan 12 metr chuqurlikka qadar pishiq g‘ishtdan qurilgan. Unda muzday toza suv butun yoz bo‘yi saqlangan. Sardoba karvonsaroy kabi yolg‘iz yo‘lovchilar uchun ham, butun boshli karvonlar uchun ham qo‘nalg‘a vazifasini o‘tagan.

Bu inshoot suv tanqis yerlardagi maxsus hovuz bo‘lib, gumbaz shaklida qurilgan. Pishgan g‘isht va gil tuproqdan ishlangan sardobaga kirish uchun eshik ham o‘rnatilgan. Qadimda sardobadan suv ichish uchun barcha yo‘lovchi va karvonlar to‘xtab o‘tgan. UNESCOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan mazkur yodgorlik hamisha sayyohlar bilan javjum.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



**Yangicha yondashuvlar**

Bugun har jabhada kreativ fikrlash, ishga yangicha yondashish davr talabiga aylandi. Hatto qo‘l mehnati bilan aziz bo‘lgan hunarmandlarimiz ham bu borada ancha ilg‘orlab ketdi. Tan olib aytadigan bo‘lsak, buning uchun imtiyozi imkoniyatlar yetarli. Qaysi sohada bo‘lmasin, yangilik yaratayotganlar albatta qo‘llab-quvvatlanyapti, boshqalarga ibrat bo‘layotir.

Respublika Hunarmand uyushmasi qoshida tashkil etilgan Startap loyihalar va inkubatsiya markazi ham yangicha ishlash istagidagilarga amaliy ko‘mak berishdek ezgu niyatda foydalanishga topshirildi. Markaz yosh hunarmandlar, dizayner va texnologlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi ko‘zda tutilgan. Bu yerda dizayn, marketing, raqamli texnologiyalar, ekologiyaga asoslangan ishlab chiqarish, startap loyihalarni amalga oshirish va bozorga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyat yuritish mumkin. “Hunarmand” uyushmasi raisi Rasuljon Mirzaahmedovning “Bu markaz ilhom, ta‘lim, hamkorlik va iqtisodiy o‘shish nuqtasidir. Biz hunarmandchilikni faqat an‘ana sifatida emas, balki zamonaviy biznes modeli sifatida qayta ko‘rib chiqmoqdamiz”, degan gaplari ko‘plab hunarmandlarni ruhlantirdi, desak xato bo‘lmaydi. Chunki markaz ochilgan kun ular uyushma binosida jam bo‘ldi. Shu kuni “Hunarmandchilik sohasida startap loyihalar”

tanlovi g‘oliblari ham taqdirlandi. Hunarmandlar tomonidan yaratilgan innovatsion loyihalar qayta ishlash, zero-waste mahsulotlar, raqamli marketpleyslar kabi yo‘nalishlarda taqdim etildi. Aytish joizki, tanlovga kelib tushgan 82 ta ariza-loyihadan belgilangan mezon talablariga javob bergan 46 tasi saralab olib o‘rganildi va baholash uchun ekspertlarga taqdim etildi. So‘nggi bosqichda aniqlangan 3 nafar g‘olib loyihalarida chinakamiga kreativlik aks etganiga guvoh bo‘ldik.

**Sifatli mahsulot narxi
70 foizga arzon**

Masalan, farg‘onalik Nargiza Sherxo‘jayeva chiqindi pilladan tola yaratib, noodatiy mahsulotlar ishlab chiqaryapti. Shu o‘rinda chiqindi pillaga deganda nima nazarda tutiladi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Tolasi ajraladigan pilla toza, birinchi navli hisoblanadi va

QO‘L MEHNATI

ZAMONAVIY BIZNES MODELIGA AYLANMOQDAMI?

undan asl tola olinib, ipakka aylantiriladi. Tolaga ajralmaydigan pilla esa past sifatli, ya‘ni chiqindi hisoblanadi. O‘zimizda undan foydalanilmaydi. Bu turdagi pillalar odatda xitoyliklarga sotib kelinadi. Nargiza opa esa ana shunday pillalarni qayta ishlash natijasida ipak tola, toladan esa ip olyapti. Iplarni bo‘yashda ham tabiiy bo‘yoqlardan foydalanilgani mahsulotning chinakamiga ekologik tozaligini ko‘rsatadi. Hunarmand chiqindi pilladan olingan iplardan ilk bor atlasnuxa gilam to‘qidi. Gilam matosidan ayollar jaketi, sumkalari, oyoq kiyimlarini tayyorladi. Aslida, chiqindidan ip olishning o‘zi bilan tanlov sharti bajarilgandi.

Organik xomashyoni kashf qilishdan tashqari undan bir nechta mahsulot yaratish esa chinakamiga muvaffaqiyat. Bir so‘z bilan aytganda, dunyo bo‘yicha chiqindisiz ishlab chiqarishga harakat qilinayotgan bir paytda Nargiza Sherxo‘jayevaning chiqindidan chiqindisiz mahsulot olayotgani e‘tirofga loyiq. Yana bir muhim jihat shundaki, asosiy xomashyosi ip bo‘lgan hunarmandlar bozordan uning bir kilosini 100 dollardan sotib oladi. Tashabbuskor hunarmandimiz tayyorlayotgan iplar esa 70 foiz arzon narxda, ya‘ni 35 dollardan sotilyapti. Aslo arzonning sho‘rvasi tatimas degan xayolga bora ko‘mmang. Iplarning sifatini, ayniqsa, bo‘yoqlarning tabiiy ekanini ularidan foydalanayotgan hunarmandlar a‘lo baholayotgani rostd.

**Keramika taqinchoqlarga
ham kirib keldi**

“Buxoro an‘anaviy sirlangan sopol hushtaklar (suvenir), zamonaviy va qadimiy



usul hamohangligida kumush va tilla bilan qoplangan zargarlik taqinchoqlari” loyihasi buxorolik Dilnoza Karimovaga omad olib keldi. U ayniqsa keramikani ayollar bezagida qo‘llayotgani bilan Badiiy kengash e‘tiborini tortdi. Ayni yangilik orqali hunarmand mashhur Abdulvohid Buxoriy keramikasi namoyandasiga aylandi. Maqsadi — Buxoro kulolchilik maktabini tiklash. 2007-yildan buyon ayollar mayda plastika ishlari bilan shug‘ullanayotgan qahramonimiz turmush o‘rtog‘i hamrohligida o‘z hovlisida ijod qiladi. Mahsulotlarini tamoman mahalliy bo‘lgan loy, ishqoriy sir kabi xomashyolardan tayyorlaydi. Qisqa qilib aytganda, Dilnoza opa hunarmandchilgimizning unutilib borayotgan

mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan loyihasi bilan qiziqdik.

— Men qorako‘l qirqimidan sport oyoq kiyimi — krossovka yaratdim. Bu, avvalo, ekologik toza mahsulot. Shuning uchun chet elliklarga ham qiziq bo‘ladi deb o‘ylayman, — deydi Zuhra opa hayajon aralash. Opa ishlab chiqarayotgan poyabzallar 15-20 yil xizmat qilishi bilan tahsiga sazovor. Qorako‘l buni tayyorlangan mahsulotlarni kiyganlar buni tabiiy qabul qiladi. Ammo bitta oyoq kiyimi shuncha yil chidab berishiga ko‘pchilikning ishonishi qiyin. Ayni paytda qorako‘l qirqimidan Zuhra opa tayyorlayotgan yana bir mahsulotning aslligini har qanday xaridor

Yaratuvchanlik salohiyati bilan aqlni shoshirayotgan insonlar safi kundan kunga ortib boryapti. Dunyoning ko‘plab nuqtalari notinchlikdan qalqib turgan bir paytda bunday kishilar odamlarda ertangi kunga umid uyg‘otib, intiluvchanlik hissini oshirayotgani quvonarli. Ularning o‘zaro tajriba almashib, bir-biridan kuch olishi uchun ham Startap loyihalar va inkubatsiya markazlari kerak bo‘ladi. “Shu shartmikan, qanday ehtiyoj bor bunga?” deydishdan avval sal o‘ylab ko‘raylik. Yaxshi niyat qilsak, bunday maydonlarda yangidan yangi, betakror g‘oyalari yetilib meva beradi, dunyo bozorlariga chiqadi. Bu esa o‘z-o‘zidan xorijdan kelayotgan sayyohlarni kreativ mahsulotlar bilan qiziqtirishga xizmat qiladi.

Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746. 34972 nusxada bosildi. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.	Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisab ko‘chasi, 85-uy
Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05		“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.		O‘za yakuni — 21:40 Topshirildi — 23:25